

J.A.Namozov, F.A.Do'smanov

MINTAQAVIY IQTISODIYOT ASOSLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TAILIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

J.A.Namozov, F.A.Do'smanov

MINTAQAVIY IQTISODIYOT ASOSLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TAILIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Chirchiq-2023

sh
ni,
sh
liy
m
ni
sh
at,
tal
va
asi
ga
ni
dli
va
sh
ini
im
ni
oq
liy
ish
xor
ish
ini
ro,
ng
diy
yo,
liy,
da

UO'K 332
K BK 65.049(5V36)
N-17

**J.A.Namozov, F.A.Do'smanov/ Mintaqaviy iqtisodiyot
asoslari / O'quv-qo'llanma - Chirchiq: «Yangi chirchiq prints»,
2023. - 156 bet.**

Qo'llanmada mintaqaviy iqtisodiyot fanining nazariy va amaliy ahamiyati, asosiy kategoriya va tushunchalari, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, bozor munosabatlarga o'tish davrida hududiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, unda O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining shakllanishi, mintaqalar (viloyatlar) iqtisodiy rivojlanishi, mamlakatning mintaqaviy siyosati kabi mavzular yoritilgan.

Ushbu kitob geografiya va iqtisodiy bilim asoslari, mintaqaviy iqtisodiyot yo'nalishining bakalavr va magistr'lari, iqtisodiyot fakulteti va oliygohlarining talaba va aspirantlariga, barcha «hududchi iqtisodchilarga» mo'ljallangan. Undan «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» kursini o'qitishda ham foydalanish mumkin.

Tag'rizchilar: g.f.n., dots. Xolmirzayev A.A.
g.f.n., dots. Maxamadaliyev R.Y.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrda 491-sonli buyrug'i bilan nashrga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-751-27-1

© J.A.Namozov va b., 2023
© «Yangi chirchiq prints», 2023

Kirish

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqarish kuchlarini, xususan Rekreatsiya va turizm sohasining jadal rivojlantirish masalalariga katta ahamiyat beriladi. Mamlakat iqtisodiy strategiyasining o'zagini tashkil etgan Rekreatsiya va turizm sohasining samaradorligi va uning sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha "Taraqqiyot strategiyasi" III- qismining 5 bandida "Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish: hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'llamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish" masalalari belgilab berilgan.

Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida maqsadli dasturlarni ilmiy asoslash, eng muhim ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bo'yicha kompleks dasturlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega bo'ladi.

Kompleks dasturlar, masalan, agrosanoat tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari eng muhim vazifalar(tarmoqlararo tavsifdagi)ni amalga oshirishda resurslarni jamlash imkoniyatini yaratadi. Ushbu dasturlar o'rta va uzoq muddatli tavsifga ega bo'ladi. Iqtisodiyotdagi hududiy mutanosibliklar va yangi hududlarni industrial o'zlashtirish talablaridan kelib chiqib tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini bozor munosabatlarga o'tkazish va erkinlashtirishda ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil etish, mintaqalar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solib borish katta ahamiyatga ega. Zero, har qanday tizimning, shu jumladan iqtisodiy makonning mukammalligi, barkamol shakllanishi eng avvalo uning tarkibiy qismlariga, hududlardagi mavjud tabiiy, mineral xom ashyo, agroqilimiy va mehnat resurslaridan, infrastruktura hamda moddiy, moliyaviy va fan-texnika yutuqlaridan foydalanishga, joylarda

sog'lom ekologik va ijtimoiy muhitni yaxshilashga, ularning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirishga bog'liq.

Mamlakatimizning ma'muriy-hududiy bo'linishi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va poytaxt Toshkent shahridan tashkil topgan. Ularning har biri va birgalikda Respublika qudratini mustahkamlash, uning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon hamjamiyatidagi mavqei ko'larishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmog'dalar. Ushbu ma'muriy tuzilmalar bir-birlarini to'ldiradi, o'zaro iqtisodiy aloqalar (integratsiya) asosida mamlakatning yaxlit tizim sifatida shakllanishini ta'minlaydilar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotning sohaviy (tarmoq) yo'nalishi bilan birga uning hududiy (mintaqaviy) jihati ham bor-ki, bu umumilmiy mazmunga ega bo'lgan tizim-tarkib tamoyiliga mos keladi. g'olaversa, har qanday rivojlanish ayni paytda va albatda qayerdadir, aniq bir hududda joylanishi orqali sodir bo'ladi. Binobarin, joylashirish, joylanish, hududiy tashkil etish rivojlanishning ajralmas tomoni, doimiy yo'ldoshidir.

Demak, hozirgi zamon talabiga javob beruvchi iqtisodchi hududni atroflicha biluvchi, baholovchi va boshqaruvchi bo'lmog'i lozim. Avvalgi tajribalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni yurgazishda faqat soha (tarmoq) prinsipiga ustuvor ahamiyat berish ko'ngildagi natijalar bermadi, mahalliy imtiyozlar inkor etildi, ijtimoiy va ekologik sohalar jabrlandi, natijada hudud alohida sog'lom majmua shaklida rivojlanmadi. Vaholanki, ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil qilish katta mintaqaviy yoki iqtisodiy geografik samara beradi.

1-mavzu. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining obyekti va predmeti..
2. Mintaqaviy iqtisodiyotning boshqa fanlari bilan aloqasi.
3. Tizim-tarkib metodining mintaqaviy iqtisodiyotda qo'llanilishi.
4. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining ustuvor yo'nalishlari.

Tayanch tushunchalar: *mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy ishlab chiqarish, umumiylikdan xususiylikka, tizim-tarkib, U'lzard, mintaqaviy siyosat.*

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyotini shakllanishida uni tashkil etuvchi mintaqalarining ahamiyati katta. Bozor munosabatlariga o'tish, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, bargaror rivojlantirishga erishish ko'p jihatdan ana shu mintaqalarning, ya'ni mamlakatning turli ichki qismlarining sa-lohiyat va imkoniyatlariga, faolligiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan hozirgi davrda ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil qilish, viloyat va iqtisodiy rayonlarning yer-suv, mineral xom ashyo, yoqilg'i va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga muhim e'tibor qaratilmog'da.

Erkin va ochiq iqtisodiyot, uning turli qatlamlarini vujudga keltirish, sog'lom raqobat va investitsiya makonini shakllantirishdek dolzarb masalalarni hududlar xususiyatini hisobga olmasdan hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining rahbariyati mahalliy hokimiyat (viloyat, shahar, tuman hokimliklari) huquq va mas'uliyatlarini kengaytirishga urg'u bermog'da. Tabiiyki, bunday sharoitda hududlarni atroflicha o'rganish, ularning imkoniyat va muammolarini chuqur tahlil qilish, ustuvor yo'nalishlarni to'g'ri aniqlashga katta ehtiyoj tug'iladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot yuqoridagi masalalarning hududiy jihatarini tadqiq etadi va aynan shu nuqtai nazardan u boshqa fanlardan farq qiladi. Uning predmetini qisqa tarzda quyidagicha ta'riflash mumkin: *mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, alohida olingan hududlar yoki hudud (region, rayon) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining omil va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.*

Umuman olganda, mintaqaviy iqtisodiyotning ta'rif ko'p, ammo ular aksariyat hollarda bir-biridan farq qilmaydi. Masalan, A.G.Granberg bu fanning predmeti sifatida, eng avvalo, mintaqalar iqtisodiyoti yoki alohida olingan mintaqaning boshqa mintaqalar (regionlar) bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganishni ko'rsatadi. qizig'i shundaki, S.V.Bershteyn-Kogan ham XX asrning 20-yillarida iqtisodiy geografiyani xuddi shunday ta'riflagan edi.

A.G.Granberg (2000 yil) kengroq ma'noda mintaqaviy iqtisodiyotni alohida mintaga va mintaqalar iqtisodiy aloqalarini, ishlab chiqarish kuchlari va iqtisodiy hayotning mintaqaviy jihlatlarini o'rganuvchi fan, deb hisoblaydi. V.F.Pavlenko bu fanning asosiy predmetini alohida mintaqalar iqtisodiyoti, ularning rivojlanish omillari, qonuniyatlari va muammolari bilan belgilaydi. M.V.Stepanov tahririda chiqqan «Mintaqaviy iqtisodiyot» darsligida bu fanga ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, mintaqalar rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlari hamda mintaqaviy rivojlanish omillarini o'rganadi, deb ta'rif berilgan.

A.Y.Probst mintaqaviy iqtisodiyot predmetini rayon ijtimoiy ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishi, hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanish va rivojlanishini tadqiq qilinishida ko'radi. E.B.Alayev esa mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, rayonlar rivojlanishining xususiyat va qonuniyatlarini o'rganishni uning asosiy predmeti sifatida ko'rsatadi.

O'z mohiyatiga ko'ra mintaqaviy iqtisodiyot, umumiy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya fanlari qitrasida yoki ularning oralig'idan joy oladi. U iqtisodiy geografiya bilan birgalikda hudud xo'jaligini o'rganuvchi fanlar turkumini tashkil etadi.

Albatta, mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya bir-biriga o'xshash va yaqin; ikkisi uchun ham ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish umumiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ammo, iqtisodiy geografiya kengroq va binobarin, umumiyroq, fundamental fan, mintaqaviy iqtisodiyot esa torroq va shuning uchun aniqroq, amaliy fandır. Iqtisodiy geografiya nafaqat rayonlar (regionlar), balki mamlakatlar, jahon xo'jaligining tizimi va tarkibi bilan ham shug'ullanadi, ularning o'zaro farqlari va xususiyatlarini o'rganadi.

Demak, iqtisodiy geografiya umumiylikdan xususiylikka, tizimdan tarkibga, ya'ni mamlakat xo'jaligining tarkibiy qismi bo'lgan rayonlarga o'tadi, global fikrlaydi va mintaqaviy amal qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu fan rayonlar va mamlakatlar majmui bilan ish tutadi. Mintaqaviy iqtisodiyotda esa yondoshuv birmuncha o'zgacha-mintaqaviy fikrlaydi va mintaqaviy amal qiladi. Biroq, shu bilan birga, ushbu mintaqaning kattaroq xo'jalik tizimi, ya'ni mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi ekanligi ham unutilmaydi. Binobarin, iqtisodiy geografiyada fikrlash «yuqoridan pastga» qaratilgan, mintaqaviy iqtisodiyotda u aksincha-«pastdan yuqoriga» yo'naltirilgan bo'ladi; birinchisida ko'proq kichik masshtabli tadqiqotlar an'anaviy bo'lsa, ikkinchisiga o'rta va yirik masshtabli yondoshuv xosdir. Iqtisodiy geografiyada tahlil tarmoq-hudud-tarmog shaklida, mintaqaviy iqtisodiyotda esa bu tartib hudud-tarmog ko'rinishiga ega.

Ko'pchilikning fikricha, iqtisodiy geografiya mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy, metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Chunki, bu fanning fundamental tushunchalari: hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish komplekslari dastavval nazariy jihatdan iqtisodiy geografiya fani doirasida yaratilgan. Hozirgi kunda bu kategoriyalar mintaqaviy iqtisodiyot uchun ham o'zak tushunchalar vazifasini bajaradi.

Ta'kidlash joizki, ushbu fanlarning o'zaro munosabati va predmeti juda munozarali va bahslidir. Har holda ularning orasidagi farqdan ko'ra o'xshashliklar ko'proq; mintaqaviy iqtisodiyot geografiylashtirilgan iqtisodiyot bo'lsa, iqtisodiy geografiya iqtisodiyashtirilgan geografiya hisoblanadi. Iqtisodiy geografiya «nima qayerda?» va «nima uchun aynan shu yerda?» savoliga javob berishni o'rgatadi, mintaqaviy iqtisodiyotda esa «qayerda nima va qanday joylashgan, u qanday samara beradi?» savollari muhimroqdir.

Ayni vaqtda, mintaqaviy iqtisodiyot mintaqaviy fanlar uyushmasiga ham kiradi. Bu uyushmani bir vaqlar, aniqrog'i XX asr o'rtalarida amerikalik olim U.Izard (Ayzard) tashkil qilgan va boshqargan edi. Shu sababdan, uni mintaqaviy yoki regional fanlar «otasi», asoschisi sifatida tan olishadi. Mintaqaviy fanlar uyushmasiga, shuningdek, mintaqaviy demografiya, mintaqaviy sotsiologiya, mintaqaviy geologiya, mintaqaviy ekologiya kabi